



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 01 | pp. 56-66 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

IFRS S2 STANDARTI TALABLARI ASOSIDA IQLIM XAVFLARINING KELAJAKDAGI MOLİYAVIY TA'SIRINI BAHOLASH VA ULARNI MOLİYAVIY HISOBOT TIZIMIGA INTEGRATSIYA QILISH MODELI



Xalilov Sherzod Axmatovich

PhD., dotsent

ISFT instituti "Buxgalteriya hisobi" kafedrası mudiri

Annotatsiya. Mazkur maqolada IFRS S2 standarti talablari asosida iqlim xavflarining kelajakdagi moliyaviy ta'sirini baholash, ularni moliyaviy hisobot tizimiga integratsiya qilish va boshqaruv qarorlarini qo'llab-quvvatlash masalalari yoritilgan. Tadqiqot doirasida O'zbekiston sharoitida iqlimga oid moliyaviy oshkor etishlarning amaldagi holati baholandi va IFRS S2 ni joriy etish jarayonida yuzaga kelayotgan asosiy muammolar aniqlandi. Ssenariylar asosida iqlim xavflarini moliyaviy baholash va ularni moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari bilan bog'lashga xizmat qiluvchi mualliflik modeli taklif etildi. Tadqiqot natijalari moliyaviy hisobotning shaffofligini oshirish va barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega.

Tayanch so'z iboralar: IFRS S2 standarti; iqlim xavflari; moliyaviy hisobot; barqarorlik hisoboti; ssenariy tahlili; strategik boshqaruv qarorlari.

Abstract. This paper examines the assessment of the future financial impacts of climate-related risks in accordance with the requirements of the IFRS S2 standard, their integration into financial reporting, and their role in supporting managerial decision-making. The study assesses the current state of climate-related financial disclosures in Uzbekistan and identifies key challenges in implementing IFRS S2. An author-developed model is proposed to evaluate climate risks using scenario-based financial analysis and to link their impacts to financial reporting indicators. The findings contribute to improving the transparency of financial reporting and support the development of corporate sustainability strategies.

Keywords. IFRS S2 standard; climate-related risks; financial reporting; sustainability reporting; scenario analysis; strategic management decisions.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы оценки будущего финансового воздействия климатических рисков в соответствии с требованиями стандарта IFRS S2, их интеграции в систему финансовой отчетности и использования в процессе принятия управленческих решений. В рамках исследования оценено текущее состояние раскрытия климатической финансовой информации в Узбекистане, проанализированы нормативно-правовые и институциональные ограничения, а также выявлены основные проблемы внедрения IFRS S2. На основе требований стандарта предложена авторская модель сценарной финансовой оценки климатических рисков и их увязки с показателями финансовой отчетности. Результаты исследования имеют практическое значение для повышения прозрачности отчетности и формирования стратегий устойчивого развития компаний.

Ключевые слова. стандарт IFRS S2; климатические риски; финансовая отчетность; отчетность по устойчивому развитию; сценарный анализ; стратегические управленческие решения.

Kirish

Barchamizga malumki, Iqlim o'zgarishi so'nggi yilliklarda eng dolzarb global muammolardan biriga aylandi va butun dunyo bo'ylab ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik jihatlariga ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Iqlim o'zgarishi bo'yicha hukumatlararo ekspertlar guruhi [3] hisobotiga nazar tashlasak, global harorat sanoatlashtirishdan oldingi davrga nisbatan 1,1°C dan ko'proqqa oshganligi suv toshqinlari, qurg'oqchilik va o'rmon yong'inlari kabi tabiiy ofatlarning tez-tez sodir bo'lishiga sabab bo'layotganligini ko'rishimiz mumkin. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (International Financial Reporting Standards (IFRS)) Xalqaro barqarorlik standartlari kengashi (International Sustainability Standards Board (ISSB)) orqali ushbu ehtiyojga javoban 2023-yilda IFRS S1 va IFRS S2 standartlarini ishlab chiqilib amaliyotga joriy etildi. IFRS S2 standarti, xususan, investorlar uchun izchil va taqqoslanadigan ma'lumotlarni taqdim etishga qaratilgan iqlim bilan bog'liq ma'lumotlarga qaratilgan [6]. Mazkur standart Iqlim bilan bog'liq moliyaviy oshkor etishlar bo'yicha ishchi guruhi (Task Force on Climate-related Financial Disclosures (TCFD)) doirasiga asoslanadi va kompaniyalarni iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xavf va imkoniyatlar haqida hisobot berishga rag'batlantiradi [7]. Ushbu jarayonda boshqaruv, strategiya, xavflarni boshqarish va qo'llanilayotgan ko'rsatkichlar hamda maqsadlar kabi jihatlarini oshkor etish nazarda tutiladi. O'zbekistonda xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS) bosqichma-bosqich o'tish jarayoni institutsional jihatdan mustahkam normativ-huquqiy asosga ega. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi 4611-sonli "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari hamda yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiruvchi yuridik shaxslar 2021-yil 1-yanvardan boshlab buxgalteriya hisobini IFRS standartlari talablari asosida tashkil etishi va 2021-yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni IFRS standartlari talablariga muvofiq tayyorlashi belgilangan [1]. Shu bilan birga, amaldagi tartib asosan moliyaviy hisobotlarning an'anaviy elementlariga qaratilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 6-fevraldagi axborot xatida moliyaviy hisobotni IFRS standartlari talablari asosida tayyorlash talablari, o'tish bosqichlari hamda qiyosiy moliyaviy axborotlarni taqdim etish majburiyatlari batafsil belgilangan [2]. Biroq mazkur hujjatda barqarorlik, iqlimga oid moliyaviy xatarlar hamda IFRS S2 standarti yoki TCFD doirasidagi oshkor etishlarni moliyaviy hisobot tizimiga integratsiya qilish masalalari nazarda tutilmagan.

Mazkur holat mamlakatimizda moliyaviy hisobotning normativ rivojlanishi bilan iqlimga oid moliyaviy axborotlar o'rtasida muayyan tatbiq etish tafovuti mavjudligini ko'rsatadi. Amaldagi IFRS standartlari talablariga asoslangan hisobot amaliyoti asosan aktivlar, majburiyatlar, daromad va xarajatlar kabi moliyaviy ko'rsatkichlar bilan cheklanib, yuqori emissiyali tarmoqlarda faoliyat yurituvchi korxonalarining iqlim xavflari, uglerod bilan bog'liq majburiyatlari va strategik moslashuv choralari tizimli ravishda aks ettirishni yetarli darajada qamrab olmaydi. Natijada, O'zbekiston sharoitida IFRS S2 standarti talablari asosida iqlimga oid moliyaviy oshkor etishlarga tayyorgarlik

darajasi, institutsional imkoniyatlar va amaliy joriy etish mexanizmlarini o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar yetarli emasligi tadqiqot bo'shlig'ini yuzaga keltirmoqda.

Mazkur tadqiqot yo'nalishi ahamiyati nafaqat barqarorlik masalasida, balki investorlarning ishonchida va kompaniyaning global bozordagi obro'sida hamdir. Shaffof iqlim hisoboti kompaniya qiymatini oshirishi va manfaatdor tomonlar bilan munosabatlarni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin [16]. Mazkur jihatlarni inobatga olgan holda, IFRS S2 standartining mamlakatimizda joriy etilishi bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar milliy biznes muhitining tobora kuchayib borayotgan barqarorlikka oid hisobot talablari sharoitida qay darajada tayyor ekanligini ko'rsatishi nuqtai nazaridan muhimdir. Mazkur maqolaning maqsadi IFRS S2 standartini joriy etish yondashuvlarni tahlil qilish, mamlakatimizda iqlimga oid hisobotlarning tayyorgarlik darajasini baholash hamda kompaniyalar ushbu standartlarni joriy etish jarayonida duch kelishi mumkin bo'lgan imkoniyatlar va muammolarni aniqlashdan iborat. Yuqorida bayon etilgan ilmiy muammolar va aniqlangan tadqiqot bo'shlig'idan kelib chiqib, mazkur maqolada IFRS S2 standarti talablari asosida iqlim xavflarining kelajakdagi moliyaviy ta'sirini baholash, ularni moliyaviy hisobot ko'rsatkichlariga integratsiya qilish hamda boshqaruv qarorlarini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi mualliflik modeli taklif etiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Barqarorlik hisoboti kompaniyaning operatsion faoliyati davomida yuzaga keladigan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ta'sirlar to'g'risida manfaatdor tomonlarga axborot yetkazish jarayonini ifodalaydi. Global Reporting Initiative (GRI) tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvga ko'ra, barqarorlik hisoboti kompaniyalarga o'z biznes faoliyatining jamiyat va atrof-muhitga ko'rsatadigan ta'siri bo'yicha hisobdorlik va shaffoflikni namoyish etish imkonini beradi [9]. Grayning fikriga ko'ra, zamonaviy buxgalteriya hisobi nuqtai nazaridan barqarorlik hisoboti strategik qarorlar qabul qilish jarayonida moliyaviy bo'lmagan omillarni integratsiya qilish uchun muhim vosita hisoblanadi [10]. Shuningdek, IFRS Foundation kompaniyalardan nafaqat qisqa muddatli moliyaviy natijalarga, balki iqlim o'zgarishi bilan bog'liq uzoq muddatli xavf va imkoniyatlarga ham e'tibor qaratish kutilayotganini ta'kidlaydi [16]. Shu bois barqarorlik hisoboti kompaniyaning global ekologik muammolarga nisbatan pozitsiyasi va strategik yo'nalishlari haqida keng qamrovli axborot berishga xizmat qiladi.

Kompaniyalarning barqarorlik, ayniqsa iqlim o'zgarishi bilan bog'liq axborotlarni oshkor etishdagi xatti-harakatlari va ularning asoslovchi omillarini tushuntirishda bir qator buxgalteriya nazariyalaridan foydalaniladi. Deegan tomonidan ilgari surilgan qonuniylik nazariyasiga ko'ra, kompaniyalar jamiyat tomonidan ijtimoiy jihatdan maqbul subyekt sifatida qabul qilinishi uchun o'z faoliyatini jamiyat qadriyatlari bilan muvofiqlashtirishga intiladi [11]. Ushbu kontekstda ekologik va iqlimga oid ma'lumotlarni oshkor etish kompaniyalarga ijtimoiy qonuniylikni saqlab qolish va jamoatchilik bosimini kamaytirishga xizmat qiladi. Freemanning manfaatdor tomonlar nazariyasiga ko'ra esa, kompaniya muvaffaqiyati investorlar, iste'molchilar, davlat organlari va jamiyat kabi manfaatdor tomonlarning kutganlarini qondirish qobiliyatiga bevosita bog'liqdir [12]. Iqlim hisobotlari doirasida ushbu yondashuv kompaniyalar iqlimga oid axborotlarni manfaatdor tomonlarning axborot ehtiyojlarini qondirish va uzoq

muddatli munosabatlarni mustahkamlash maqsadida oshkor etishini izohlaydi. Bundan tashqari, DiMaggio va Powell tomonidan ishlab chiqilgan institutsional nazariyaga ko'ra, barqarorlik hisoboti amaliyotlari ko'pincha normativ-huquqiy talablar, xalqaro institutlar va ijtimoiy normalar ta'siri ostida shakllanadi [13]. IFRS Foundation va Xalqaro Barqarorlik Standartlari Kengashi (ISSB) kabi institutlarning institutsional bosimi ostida kompaniyalar global bozorda ishonchlilik va raqobatbardoshlikni ta'minlash maqsadida IFRS S2 kabi xalqaro standartlarga moslashishga undalmoqda.

Xalqaro barqarorlik standartlari kengashi (ISSB) tomonidan 2023-yilda e'lon qilingan IFRS S2 "Iqlimga oid oshkor etishlar" standarti iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xavf va imkoniyatlarni oshkor etish bo'yicha xalqaro yo'riqnoma hisoblanadi. IFRS S2 standarti IFRS S1 standartini to'ldirish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, kompaniya strategiyasi, operatsion faoliyati va moliyaviy holatiga iqlim omillarining ta'siri haqidagi aniq oshkor etishlarga qaratilgan [6].

Mazkur standart ilgari iqlim bilan bog'liq moliyaviy ma'lumotlar bo'yicha ishchi guruh (TCFD) tomonidan joriy etilgan quyidagi to'rtta asosiy ustunga asoslanadi:

- Boshqaruv, bu boshqaruv kengashining boshqaruvi va iqlim xavflariga nisbatan majburiyatlarini tavsiflaydi;
- Strategiya, bu iqlim o'zgarishining biznes strategiyasi va rejalashtirishga ta'sirini tavsiflaydi;
- Xavflarni boshqarish, bu iqlim xavflarini aniqlash va kamaytirish jarayonini tavsiflaydi;
- Ko'rsatkichlar va maqsadlar, iqlim ta'sirlarini boshqarishda foydalaniladigan samaradorlik ko'rsatkichlari va korporativ maqsadlarni o'z ichiga oladi [7].

IFRS S2 ning asosiy maqsadi yurisdiksiyalarda bo'yicha iqlim hisobotlarida izchillik, taqqoslanish va shaffoflikni oshirishdan iborat. Biroq mazkur standart iqlim xavflarining kelajakdagi moliyaviy ta'sirini amaliy jihatdan qanday baholash va ularni moliyaviy hisobot elementlariga integratsiya qilish bo'yicha yagona mexanizmni belgilab bermaydi, bu esa mualliflik modelini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. Natijada, ushbu mualliflik modeli investorlarga iqlim bilan bog'liq xavf va imkoniyatlarni hamda ularning kompaniya qiymatiga ta'sirini moliyaviy nuqtai nazardan baholash imkonini beradi.

O'zbekistonda IFRS S2 standartni joriy etish darajasi hozirgi bosqichda qisman shakllangan normativ-huquqiy asos bilan tavsiflanadi. Mamlakatimizda IFRSga o'tish jarayoni Prezident qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar orqali institutsional jihatdan mustahkamlangan bo'lsada, amaldagi tartib asosan an'anaviy moliyaviy hisobotlarga yo'naltirilgan bo'lib, iqlimga oid moliyaviy oshkor etishlar, xususan IFRS S2 standarti talablari hozircha majburiy norma sifatida belgilab qo'yilmagan. Shu bilan birga, O'zbekistonda barqarorlik va iqlim hisoboti bo'yicha alohida standartlar yoki IFRS S2 standartiga mos milliy yo'riqnoma hali ishlab chiqilmaganligi sababli, ushbu yo'nalishdagi institutsional tayyorgarlik darajasi past-o'rta bosqichda qolmoqda. Barqarorlikka oid axborotlar asosan ixtiyoriy tarzda yoki ayrim yirik korxonalar tomonidan donorlar va xalqaro moliyaviy institutlar talabi asosida taqdim etilmoqda.


Iqlim o'zgarishi kompaniyalar uchun jiddiy xavf tug'diradi. Bunga tabiiy ofatlar va ekstremal ob-havo hodisalari kabi jismoniy xavflar, shuningdek siyosiy o'zgarishlar va

bozor sharoitlarining o'zgarishi bilan bog'liq o'tish xavflari kiradi [3]. Shunga qaramay, amaliy darajada ko'plab korxonalarda iqlim xavflarini moliyaviy baholash, uglerod bilan bog'liq majburiyatlarni hisobga olish hamda iqlim risklarini moliyaviy hisobotlarga integratsiya qilish jarayonlari hanuzgacha tizimli amaliyot sifatida shakllanmagan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, hatto energetika, metallurgiya va sement sanoati kabi yuqori emissiyali tarmoqlarda ham iqlimga oid axborotlar moliyaviy hisobotlarning tarkibiy qismi sifatida tizimli ravishda oshkor etilmayapti. Bundan tashqari, IFRS S2 standartini joriy etish jarayonida texnik va kadrlar salohiyatining cheklanganligi, xususan ma'lumotlar infratuzilmasining yetarli emasligi, iqlim buxgalteriya hisobi va IFRS S2 bo'yicha malakali mutaxassislar tanqisligi hamda ichki metodologiyalar va IT-yechimlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi ushbu jarayonni murakkablashtirmoqda. Mazkur holat O'zbekiston sharoitida IFRS S2 talablari asosida iqlim xavflarini moliyaviy baholash, ularning kelajakdagi moliyaviy ta'sirini aniqlash va moliyaviy hisobot tizimiga integratsiya qilishga yo'naltirilgan amaliy model ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Natijalar

Mazkur natijalar bo'limida IFRS S2 standarti talablari asosida ishlab chiqilgan iqlim xavflarining kelajakdagi moliyaviy ta'sirini baholash, ularni moliyaviy hisobotga integratsiya qilish hamda boshqaruv qarorlarini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan mualliflik modeli bo'yicha olingan asosiy natijalar taqdim etiladi.


Tadqiqot natijasida IFRS S2 standartining asosiy talablariga mos ravishda iqlim xavflarining kelajakdagi moliyaviy ta'sirini aniqlash, baholash va moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari bilan bog'lash imkonini beruvchi mualliflik modeli ishlab chiqildi.



1-rasm. Iqlim xavflarini moliyaviy ta'sirini baholash modeli¹

Mazkur model iqlim bilan bog'liq jismoniy va o'tish xavflarini aniqlash, ularning ehtimolligi hamda moliyaviy ta'sirini baholash orqali korxonaning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlariga ta'sirini tizimli ravishda aniqlashga qaratilgan. Modelda iqlim xavflari moliyaviy hisobot elementlari aktivlar, majburiyatlar, xarajatlar va pul oqimlari bilan o'zaro bog'langan holda ko'rib chiqilib, ularning kelajakdagi moliyaviy natijalarga ta'siri baholanadi. Ushbu yondashuv IFRS S2 standarti doirasida iqlimga oid moliyaviy axborotni izchil va taqqoslanadigan shaklda taqdim etish imkonini beradi.

¹ Muallif tomonidan IFRS S2 "Climate-related Disclosures" standarti, TCFD doirasi hamda GHG Protocol metodologiyasi asosida ishlab chiqilgan.



2-rasm. IFRS S2 standarti doirasida iqlim bilan bog'liq risk va imkoniyatlarning moliyaviy ta'siri va boshqaruv qarorlariga integratsiyasi²

Model doirasida IFRS S2 standarti talablariga muvofiq iqlim bilan bog'liq asosiy risk va imkoniyatlarning moliyaviy ta'siri hamda ularning boshqaruv qarorlariga integratsiya qilinish yo'nalishlari 2-rasmda keltirilgan. Unda iqlim bilan bog'liq jismoniy va o'tish xavflari, shuningdek iqlimga oid imkoniyatlarning korxona moliyaviy ko'rsatkichlariga ta'siri tizimlashtirilgan. Xavflar va imkoniyatlar ularning aktivlar qiymati, majburiyatlar, xarajatlar va pul oqimlariga ta'siri nuqtai nazaridan baholanib, boshqaruv qarorlariga integratsiya qilish yo'nalishlari aniqlangan. Ushbu yondashuv iqlim xavflarini strategik rejalashtirish va moliyaviy boshqaruv jarayonlari bilan bog'lash imkonini beradi.

1-jadval

IFRS S2 standarti doirasida iqlim xavflarining kelajakdagi moliyaviy ta'siri: ssenariylar asosida risk va imkoniyatlarni baholash³

Prognoz va ssenariy tahlili elementlari	Risk	Imkoniyat
Iqlim xavflarining kelajakdagi moliyaviy oqibatlarini prognozlash	Iqlim xavflarining kuchayishi xarajatlar oshishi, daromadlar qisqarishi, pul oqimlari beqarorlashuvi va aktivlar qiymatining pasayishi ehtimolini keltirib chiqaradi Iqlim xavflari ↑ → moliyaviy oqibatlar ↑ → foyda va pul oqimlariga bosim ↑	Iqlim xavflarini prognozlash risklarni erta aniqlash, strategik moslashuvni rejalashtirish va moliyaviy barqarorlikni oshirish imkonini beradi Prognozlash ↑ → strategik qarorlar sifati ↑ → moliyaviy barqarorlik ↑
Karbon narxining oshishi sharoitidagi ssenariylari	Karbon narxining oshishi sharoitida uglerod to'lovlari va ishlab chiqarish xarajatlarning ko'payishi, tannarxning oshishi, foyda marjasining qisqarishi hamda operatsion pul oqimlariga bosim kuchayishi ehtimoli yuzaga keladi Karbon narxi oshishi → xarajatlar ↑ → foyda va pul oqimlariga bosim ↑	Karbon narxining oshishi emissiyani qisqartirishga yo'naltirilgan texnologiyalarni joriy etish, energiya samaradorligini oshirish va past uglerodli mahsulotlar orqali raqobatbardoshlikni kuchaytirish uchun rag'bat yaratadi Emissiya ↓ → karbon to'lovlari ↓ → moliyaviy barqarorlik ↑
Iqlim bo'yicha reguliyator talablarning kuchayishi ssenariylari	Reguliyator talablarning kuchayishi sharoitida muvofiqlik xarajatlarning oshishi, hisobot va monitoring talablarning murakkablashuvi, investitsiya ehtiyojlarining ortishi hamda foyda va pul oqimlariga qisqa muddatli bosim kuchayishi ehtimoli yuzaga keladi Reguliyatoriy talablar ↑ → muvofiqlik xarajatlari ↑ → foyda va pul oqimlariga bosim ↑	Reguliyator talablarning kuchayishi boshqaruv va hisobot jarayonlarini takomillashtirish, ESG ko'rsatkichlarini yaxshilash, investorlar ishonchini oshirish hamda uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash uchun institutsional rag'bat yaratadi Emissiya ↓ → karbon to'lovlari ↓ → moliyaviy barqarorlik ↑
Energiya samaradorligi ssenariylari	Energiya samaradorligiga investitsiyalar qisqa muddatda kapital va operatsion xarajatlarning oshishiga olib kelishi mumkin Investitsiya xarajatlari ↑ → qisqa muddatli moliyaviy bosim ↑	Energiya samaradorligini oshirish energiya xarajatlarni kamaytirish hamda foyda va pul oqimlarini barqarorlashtirish imkonini yaratadi Energiya xarajatlari ↓ → foyda va pul oqimlari ↑

² Muallif tomonidan IFRS S2 "Climate-related Disclosures" standarti, TCFD doirasi hamda GHG Protocol metodologiyasi asosida ishlab chiqilgan.

³ Muallif tomonidan IFRS S2 "Climate-related Disclosures" standarti, TCFD doirasi hamda GHG Protocol metodologiyasi asosida ishlab chiqilgan.

Iqlim bilan bog'liq xavflarning kelajakdagi moliyaviy ta'siri past, o'rta va yuqori xavf ssenariylari asosida baholanib, ularning korxona moliyaviy ko'rsatkichlariga ta'siri yuqorida keltirilgan 1-jadvalda aks ettirilgan. 1-jadvalda Iqlim bilan bog'liq xavflarning past, o'rta va yuqori darajadagi ssenariylari asosida korxonaning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlariga bo'lgan kutilayotgan ta'siri aks ettirilgan. Natijalar iqlim xavflarining kuchayishi sharoitida operatsion xarajatlar oshishi, aktivlar qiymatining pasayishi hamda pul oqimlarida beqarorlik yuzaga kelishi ehtimolini ko'rsatadi. Mazkur ssenariy tahlili boshqaruv qarorlarini qabul qilishda iqlim risklarini oldindan inobatga olish zarurligini asoslab, iqlim xavflarining kelajakdagi moliyaviy ta'sirini moliyaviy hisobot elementlari bilan bog'lash va ularni moliyaviy hisobotga integratsiya qilish masalasini dolzarb etadi [].

Iqlim xavflarining kelajakdagi moliyaviy ta'sirini baholash natijalari moliyaviy hisobot elementlariga integratsiya qilinib, ularning moliyaviy natijalarda aks ettirilish yo'nalishlari quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

IFRS S2 doirasida iqlim xavflarini moliyaviy hisobotga integratsiya qilish⁴

Moliyaviy hisobotga integratsiya yo'nalishlari	Risk	Imkoniyat
Moliyaviy ko'rsatkichlarda iqlim xavflarining aks ettirilishi	Iqlim xavflari xarajatlarning oshishi, daromadlar qisqarishi, pul oqimlarining beqarorlashuvi hamda aktivlar qiymatining pasayishi orqali moliyaviy ko'rsatkichlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi Xarajatlar ↑ → daromadlar ↓ → pul oqimlari beqaror → aktivlar qiymati ↓	Iqlim xavflarini samarali boshqarish xarajatlarni optimallashtirish, rentabellikni yaxshilash va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash imkonini yaratadi Samarali boshqaruv → xarajatlar ↓ → rentabellik ↑ → moliyaviy barqarorlik ↑
IFRS S2 talablari asosida ochiqlanishlar	IFRS S2 talablari asosida quyidagilar ochiqlanishi lozim: iqlim bilan bog'liq risklar va imkoniyatlar hamda ularning moliyaviy hisobotlarga ta'siri, boshqaruv va strategiya, jumladan ssenariy tahlili, risklarni boshqarish mexanizmlari va ko'rsatkichlar va maqsadlar	

Moliyaviy hisobotga integratsiya qilingan iqlimga oid axborotlar barqaror rivojlanish bo'yicha strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, bunday axborotlar asosida korxonalar investitsiya

⁴ Muallif tomonidan IFRS S2 "Climate-related Disclosures" standarti, TCFD doirasi hamda GHG Protocol metodologiyasi asosida ishlab chiqilgan.

yo'nalishlarini belgilash, uglerod bilan bog'liq xavflarni kamaytirish strategiyalarini ishlab chiqish hamda resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada iqlim omillari uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirish va korxonaning barqaror qiymatini shakllantirish jarayonlariga integratsiya qilinadi [16].

3-jadval

Iqlim bilan bog'liq ma'lumotlar asosida barqaror rivojlanish bo'yicha strategik qarorlar qabul qilish⁵

Barqaror rivojlanish bo'yicha strategik qarorlar ishlab chiqish	✓	iqlim va uglerod xavflari tahlili asosida past uglerodli texnologiyalar, energiya samaradorligi va barqaror loyihalarga investitsiya yo'nalishlarini aniqlash;
	✓	Scope 1–2–3 emissiyalari tahliliga asoslanib emissiyani qisqartirish choralarining ustuvorligini belgilash;
	✓	iqlim, bozor va regulatory xavflarni kamaytirish bo'yicha moslashuv, diversifikatsiya va kompensatsiya mexanizmlarini ishlab chiqish;
	✓	ekologik samaradorlikni oshirish orqali ESG reytinglari, investorlar ishonchi va korxonaning barqarorlik imijini mustahkamlash.

Ushbu jadvallarda IFRS S2 standarti doirasida iqlim bilan bog'liq xavflar va imkoniyatlarni moliyaviy hisobotga integratsiya qilish hamda ulardan strategik boshqaruv qarorlarida foydalanish mexanizmi yoritilgan. Natijalar past uglerodli strategiyalarni ishlab chiqish, emissiyalarni qisqartirish va ESG samaradorligini oshirish bo'yicha qarorlarni moliyaviy jihatdan asoslash imkonini beradi. Mazkur yondashuv iqlimga oid moliyaviy axborotdan boshqaruv amaliyotida foydalanish uchun ilmiy-amaliy asos yaratadi.

Muhokama

Mazkur tadqiqot natijalari IFRS S2 standarti talablariga muvofiq ravishda iqlim xavflarining kelajakdagi moliyaviy ta'sirini baholash, ularni moliyaviy hisobot tizimiga integratsiya qilish hamda boshqaruv qarorlarini qo'llab-quvvatlash masalalarining dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi. Ishlab chiqilgan model natijalari shuni ko'rsatadiki, iqlim bilan bog'liq jismoniy va o'tish xavflari korxonalarning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlariga aktivlar qiymati, xarajatlar darajasi, pul oqimlari va moliyaviy barqarorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu holat IFRS S2 doirasida iqlim xavflarini moliyaviy baholash va hisobotda aks ettirish zarurligini nazariy emas, balki amaliy jihatdan asoslaydi.

Xalqaro amaliyotda IFRS S2 standarti yirik transmilliy kompaniyalar tomonidan iqlim bilan bog'liq xavflarni strategik va moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayonlariga integratsiya qilish vositasi sifatida qo'llanilmoqda. Xususan, Unilever va Nestlé kabi kompaniyalar iqlim xavflarini boshqaruv, strategiya va investitsiya qarorlari bilan bog'lab, past uglerodli texnologiyalar hamda barqaror ta'minot zanjirlariga sarmoya kiritishni

⁵ Muallif tomonidan IFRS S2 "Climate-related Disclosures" standarti, TCFD doirasi hamda GHG Protocol metodologiyasi asosida ishlab chiqilgan.

ustuvor yo'nalish sifatida belgilagan [14]. Energetika sektorida esa BP va Shell kabi kompaniyalar IFRS S2 standarti doirasida o'tish xavflarini aniqlab, ularni moliyaviy prognozlar va bozor qiymatini baholash jarayonlariga integratsiya qilmoqda [15]. Ushbu misollar IFRS S2 ning faqat oshkor etish standarti emas, balki strategik boshqaruv vositasi sifatida ham shakllanayotganini ko'rsatadi. Mazkur xalqaro tajribalar ushbu tadqiqotda taklif etilgan modelning mantiqiy va amaliy asoslanganligini tasdiqlaydi. Ya'ni, iqlim xavflarini ssenariylar asosida moliyaviy baholash, ularning kelajakdagi moliyaviy ta'sirini aniqlash hamda ushbu ta'sirlarni moliyaviy hisobot elementlari bilan bog'lash global amaliyotda samarali mexanizm sifatida keng qo'llanilmoqda. Tadqiqot natijalari aynan shu mexanizmni tizimli model sifatida shakllantirib, IFRS S2 standarti talablarining amaliy joriy etilishi uchun metodologik asos taklif etadi. O'zbekiston sharoitida esa IFRS standarti asosida moliyaviy hisobot yuritish bo'yicha normativ-huquqiy baza shakllangan bo'lsada, iqlimga oid moliyaviy xavflarni moliyaviy hisobot bilan integratsiya qilish masalalari hali yetarlicha rivojlanmagan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, iqlim xavflari, xususan yuqori emissiyali tarmoqlarda, korxonalarning moliyaviy barqarorligiga o'rta va uzoq muddatda sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois, IFRS S2 standarti talablari asosida ishlab chiqilgan model O'zbekiston sharoitida iqlim xavflarini moliyaviy baholash, ularni hisob va hisobot tizimiga integratsiya qilish hamda strategik boshqaruv qarorlarida foydalanish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, IFRS S2 standarti doirasida iqlimga oid moliyaviy axborotni tizimli ravishda shakllantirish va undan boshqaruv qarorlarida foydalanish korxonalarning nafaqat barqarorlik ko'rsatkichlarini, balki uzoq muddatli moliyaviy qiymatini ham oshirish imkonini beradi. Bu esa mazkur tadqiqotda taklif etilgan modelning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyatini yanada kuchaytiradi. *Cheklovlar va kelgusidagi tadqiqotlar.* Mazkur tadqiqot bir qator cheklovlarga ega. Avvalo, taklif etilgan model konseptual va metodologik yondashuvga asoslangan bo'lib, u empirik moliyaviy ma'lumotlar asosida sinovdan o'tkazilmagan. Shuningdek, tadqiqotda iqlim xavflarining miqdoriy baholanishi umumlashtirilgan ssenariylarga tayangan bo'lib, alohida tarmoqlar yoki korxonalar kesimida chuqurlashtirilmagan.

Kelgusidagi tadqiqotlarda mazkur modelni real korxona ma'lumotlari asosida empirik sinovdan o'tkazish, tarmoqlar kesimida qiyosiy tahlillarni amalga oshirish hamda IFRS S2 standarti doirasida iqlim xavflarini moliyaviy prognozlashning aniqroq ko'rsatkichlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar asosida iqlim xavflarini avtomatlashtirilgan monitoring qilish va hisobotga integratsiya qilish masalalari alohida ilmiy tadqiqot yo'nalishi sifatida ko'rib chiqilishi mumkin.

Xulosa

Mazkur tadqiqot IFRS S2 standarti talablari asosida iqlim xavflarining kelajakdagi moliyaviy ta'sirini baholash, ularni moliyaviy hisobot tizimiga integratsiya qilish hamda boshqaruv qarorlarini qo'llab-quvvatlash masalalarini kompleks yondashuv asosida tahlil qilishga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, iqlim bilan bog'liq jismoniy va o'tish xavflari korxonalarning moliyaviy holati, aktivlar qiymati, xarajatlar tuzilmasi va pul oqimlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lib, ushbu omillarni moliyaviy

hisobot doirasida hisobga olish zamonaviy buxgalteriya amaliyotining muhim yo'nalishiga aylanmoqda.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan model iqlim xavflarini ssenariylar asosida moliyaviy baholash, ularning kelajakdagi ta'sirini prognozlash hamda moliyaviy hisobot elementlari bilan bog'lash mexanizmini shakllantiradi. Ushbu yondashuv IFRS S2 standarti talablariga mos holda iqlimga oid moliyaviy axborotni tizimli ravishda taqdim etish, ularning taqqoslanishini ta'minlash hamda strategik boshqaruv qarorlarida foydalanish imkonini yaratadi.

Xalqaro amaliyot bilan solishtirish natijalari shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda IFRS S2 standarti kompaniyalarning strategik rejalashtirish va investitsiya qarorlarida muhim vosita sifatida qo'llanilmoqda. O'zbekiston sharoitida esa IFRS standarti asosida moliyaviy hisobot yuritish bo'yicha normativ-huquqiy asos shakllangan bo'lsada, iqlim xavflarini moliyaviy hisobotga integratsiya qilish amaliyoti yetarli darajada rivojlanmagan. Shu jihatdan, taklif etilgan model mamlakatimiz korxonalari uchun iqlim xavflarini boshqarish va barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan qarorlar qabul qilishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Umuman olganda, tadqiqot natijalari IFRS S2 standarti doirasida iqlimga oid moliyaviy oshkor etishlarni rivojlantirish, moliyaviy hisobot sifatini oshirish va korxonalar faoliyatining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur model O'zbekiston sharoitida iqlim doir hisob tizimi va barqarorlik hisobotlarini shakllantirish bo'yicha kelgusidagi ilmiy va amaliy izlanishlar uchun mustahkam metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida (PQ-4611-son, 24.02.2020). <https://lex.uz/docs/-4746047>
2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2024). *Axborot xati №03-43-2725: Moliyaviy hisobotni IFRS asosida tayyorlash talablari, o'tish bosqichlari va qiyosiy moliyaviy axborotlarni taqdim etish majburiyatlari*. Tashkilot. https://api.mf.uz/media/document_files/Axborot_xati03-43-2725.pdf
3. IPCC. (2023). Sixth Assessment Report. Intergovernmental Panel on Climate Change. <https://www.ipcc.ch/assessment-report/ar6/>
4. IPCC. (2023). Climate Change 2023: Synthesis Report. Geneva: Intergovernmental Panel on Climate Change. <https://www.ipcc.ch/report/synthesis-report/>
5. Greenhouse Gas Protocol. (n.d.). Greenhouse Gas Protocol — A Corporate Accounting and Reporting Standard. World Resources Institute & World Business Council for Sustainable Development. <https://ghgprotocol.org/>
6. IFRS Foundation. (2023). IFRS S1 General Requirements for Disclosure of Sustainability-related Financial Information and IFRS S2 Climate-related Disclosures. International Financial Reporting Standards Foundation. <https://www.ifrs.org/issued-standards/ifrs-sustainability-standards-navigator/>
7. TCFD. (2024). Recommendations of the Task Force on Climate-related Financial Disclosures. Basel: Financial Stability Board. <https://www.fsb-tcfd.org/recommendations/>

8. ISSB. (2023). International Sustainability Standards Board (ISSB) Framework. IFRS Foundation. <https://www.ifrs.org/groups/international-sustainability-standards-board/>
9. Global Reporting Initiative (GRI). (2021). GRI Standards: Sustainability Reporting Guidelines. Amsterdam: Global Reporting Initiative. <https://www.globalreporting.org/standards/>
10. Gray, R. (2022). Accounting and accountability: Changes and challenges in corporate social and environmental reporting. Prentice Hall. https://books.google.com/books/about/Accounting_Accountability.html?id=KaJhQgAACAJ&utm_source=chatgpt.com
11. Deegan, C. (2022). The legitimising effect of social and environmental disclosures – a theoretical foundation. *Accounting, Auditing & Accountability Journal*, 15(3), 282–311. <https://doi.org/10.1108/09513570210435852>
12. Freeman, R. E. (2021). Strategic management: A stakeholder approach. Boston: Pitman. <https://www.scirp.org/reference/referencespapers?referenceid=1209107>
13. DiMaggio, P. J., & Powell, W. W. (2023). The iron cage revisited: Institutional isomorphism and collective rationality in organizational fields. *American Sociological Review*, 48(2), 147–160. https://www.researchgate.net/publication/224892279_The_Iron_Cage_Revisited_Isomorphism_in_Organizational_Fields
14. Unilever plc. (2023). *Climate Transition Action Plan and Annual Report 2023*. Unilever. <https://www.unilever.com/investors/annual-report-and-accounts/>
15. BP plc. (2025). Annual Report and Form 20-F 2024: Climate-related financial disclosures. BP. <https://www.sec.gov/Archives/edgar/data/313807/000031380725000007/bp-20241231.htm>
16. ISSIQXONA GAZLARI (GHG) EMISSİYALARI BILAN BOG'LIQ IQLIM XAVFLARINI MOLIYAVIY BAHOLASH: IFRS S2, IAS 36 VA IAS 37 ASOSIDA. (2025). *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 5(10), 139–151. https://doi.org/10.55439/AFA/vol5_iss10/1276
17. Khalilov, S. A. (2025). Yashil buxgalteriya hisobi: buxgalteriya hisobida uglerod chiqindilarini hisobga olishning nazariy yondashuvlari. *Muhandislik va Iqtisodiyot*, 3(4), 11–25. <https://doi.org/10.5281/zenodo.1547194019>. Khalilov, S. A. Development of a green accounting methodology in Uzbekistan: Lessons from the Malaysian experience. *Scientific Journal of International Finance & Accounting*, Issue 1. https://interfinance.tsue.uz/wp-content/uploads/2024/02/Paper_2_Sh.Khalilov-1.pdf20.
18. Khalilov, S. (2025). Uglerod chiqindilarini buxgalteriya hisobiga integratsiya qilish: O'zbekiston iqtisodiyotida barqaror rivojlanish vositasi sifatida. *Green Economy and Development*, 3(5). <https://doi.org/10.5281/zenodo.1565499921>
- .Khalilov, S. A. (2025). Improvement of green accounting methodology in Uzbekistan: Experience of developed countries. *Ustozlar uchun*, 1(1), 684–689. <https://journalss.org/index.php/ust/article/view/205>